

ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Obobakirova Valizaoy Valisher qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

2- kurs magistranti

Annotatsiya : Ushbu maqolada Ingliz va o'zbek tillarida ergash gapli qo'shma gaplar haqida ko'plab olimlar tomonidan berilgan fikr va muloxazalar yig'ib olingan va tahlil etilgan hamda E.Heminguey asaridan misollar keltirilgan. O'zbek va ingliz tillarida ergash gapli qo'shma gaplarning struktural-semantik taxlili keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, nominal, aniqlovchili, ravishdoshli, sintetik, asindetik.

Annotation: This article collects and analyzes the opinions and comments given by many scientists about conjunctions with adverbial clauses in English and Uzbek languages, and examples from E. Hemingway's work are given. The structural-semantic analysis of adverbial clauses in Uzbek and English languages is widely covered.

Key words: conjunction, subordinate clause, nominal, determinative, relational, synthetic, asyndetic.

Аннотация: В данной статье собраны и проанализированы мнения и комментарии многих ученых о союзах с деепричастными предложениями в английском и узбекском языках, приведены примеры из творчества Э. Хемингуэя. Широко освещен структурно-семантический анализ деепричастных предложений в узбекском и английском языках.

Ключевые слова: союз, придаточное предложение, именной, определительный, относительный, синтетический, асиндетический.

Bog'langan qo'shma gaplardan farqli ravishda ham fikriy, ham grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo'lgan, tarkibidagi komponentlardan sintaktik jixatdan biri ikkinchisiga tobelik munosabatda bog'langan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar deyiladi.

Ergashgan qo'shma gaplar bosh va yergash gaplardan tashkil topadi. Mazmuni izoxlanayotgan gap bosh gap xisoblanadi. Bosh gapga ergashib, uning mazmunini izoxlab kelgan gap esa ergash gap deyiladi.

It was warm and like the spring and I walked down the alleyway of trees, warmed from the sun on the wall, and found we still lived in the same house and that it all looked the same as when I had left it.

Kun iliq edi ko'klam xidi esardi, men devorga quyosh nuri tushib turgan, oftobda isigan qator daraxtlar ko'chadan o'tib bordim va biz xamon o'sha o'zimizning uyda

*turganligimizni, shuncha vaqt o'tsada, xamma narsa qanday bo'lsa shunday qolganligini ko'rdim.*¹

Qo'shma gaplarni G.Svit bog'langan va ergash gapli qo'shma gap turlarini farqlaydi xamda sodda gaplarni ikki xil bo'ladi deb hisoblaydi.

A) independent (hokim)

B) dependent (tobe)

When I came back to the front, we still lived in that town.

When I came back to the front-dependent, we still lived in that town-independent.

Tilshunoslikda ergash gapli qo'shma gaplar tasnifi muxim masalalardan biri xisoblanib, ko'plab olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Quyida bir qator olimlar fikrlarini keltirib o'taman.

V.D.Ilish va L.S.Barxudarov kabi olimlar tadqiqodlarida qo'shma gaplar "teng bog'langan" (compound) va "ergash gapli" (complex) qo'shma gaplarga ajratilgan. Ergash gaplarni rus grammatistlari sintaktik jixatlariga ko'ra: ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi, ravish ergash gaplarga ajratgan bo'lsalar; ingliz olimlari kommunikativ funksional jixatlariga ko'ra: nominal (ega,kesim); aniqllovchili (attributive); ravishdoshli (adverbial clause) kabi turlarga klassifikatsiya qilganlar. N.A.Kobrina va E.A. Korneeva ergash gapli qo'shma gaplarni gap bo'lagi sifatidagi vazifalariga ko'ra tasnif etadilar xamda ularni uch guruxga jamlaydilar: nominal clouses (turli o'rinlarda ot vazifasida keluvchi otlar), attributive clouses and adverbial clouses. Xol ergash gapli qo'shma gaplarning 9 turini farqlaydilar: o'rin (o'rin), payt(time), tarz(manner), qiyos(comparison), shart(condition), to'siqsiz(concession), maqsad(purpose), sabab(cause), natija(result). Bosh gapni "main clause", ergash gapni "subordinate clause" deb atagan xolda ularni bog'lovchi vositalarini konnektorlar (connectors) deb nomlaydilar. Ularning fikricha, konnektorlar orqali bog'lanish sintetik, ularsiz ergashish esa asindetik bog'lanish xisoblanadi. Bunday bog'lanish turlari deyarli barcha tilshunos olimlar tomonidan etirof etiladi. Demak:

1) sintetik – yani ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi so'zlar vositasida:

When you come back bring a phonograph.

*When this road was finished the offensive would start.*²

Ushbu misollarda when bog'lovchisi ergash gapni bosh gapga bog'layapti.

2)asindetik – bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi so'zlar.

The priest young and blushed easily and wore a uniform like the rest of us but with a cross in dark red velvet above the left breast pocket of his gray tunic.

B. Ilish o'zinig "The structure of Modern English" nomli asarida ergash gapli qo'shma gaplarni 3 guruxga bo'lib tadqiq qilgan. Bu tadqiqot qo'shma gaplarni xam

¹ A.G'ulomov, M.Asqarova.Hozirgi o'zbek adabiy tili.(Sintaksis) T., "O'qituvchi", 1965.b.15

² E.Hemingway, "A Farewell to Arms". New York 1957, b 23

O.Jepersenning ingliz tilida ergash gapli qo'shma gaplarni tarkibidagi ergash gapning qaysi gap bo'lagini to'ldirib, izoxlab, aniqlab kelishiga ko'ra uch guruxga bo'linadi degan fikrini asos qilib olgan.

B. Ilish nazariyasida ergash gapli qo'shma gaplar ega va kesim ergash gapli qo'shma gaplar (subject and predicative clauses), to'ldiruvchi va aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar (object and attributive clauses) va ravish ergash gapli qo'shma gap (adverbial clause). Ravish ergash gapli qo'shma gapning turlari bilan birgalikda B. Ilish ingliz tilida qo'shma gaplar sonini 12 ta deb topdi. Ularni quyidagicha turlarga ajratadi:

Ergashgan qo'shma gap(subordinate clauses):

- 1.Ega va kesim ergash gap (subject and predicative clauses)
 - Ega ergash gap (subject clause)
 - Kesim ergash gap (predicative clause)
- 2.To'ldiruvchi va aniqlovchi ergash gap (object and attributive clauses)
 - To'ldiruvchi ergash gap (object clauses)
 - Aniqlovchi ergash gap (attributive clauses)
- 3.Ega va kesim ergash gap (subject and predicative clauses)
 - O'rin ergash gap (clauses of place)
 - Payt ergash gap (clauses of time or temporal clauses)
 - Sabab ergash gap (causal clauses)
 - Shart ergash gap (conditional clauses)
 - Natija ergash gap (clauses of result)
 - Maqsad ergash gap (clauses of purpose)
 - To'siqsiz ergash gap (clauses of concession)
 - Taqlid va taqqoslash ergash gap (clauses of manner and comparison)

B.Ilish ingliz tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarni yuqorida qo'rsatilgandek turlarga ajratadi. Umuman olganda, ergash gapli qo'shma gaplarning turi 10 ta deb, bazida 14 tagacha aniqlangan. Ergash gapli qo'shma gaplarni Ilish yana bir turga taqlid va taqqoslash ergash gap (clauses of manner and comparison) ko'paytiradi.

V.L. Kaushanskaya esa ergashgan qo'shma gaplarni ega (subject clause), kesim (predicative clause), aniqlovchi (attributive clause), to'ldiruvchi (object clause) va xol (adverbial clause) kabi turlarga ajratadi.

N.A.Basaqov esa xozirgi turkiy tillardagi qo'shma gaplarni quyidagi turlarga ajratadi:

1) bosh gapdagi substantiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruxga ega va to'ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

2) bosh gapdagi atributiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruxga kesim va aniqlovchi ergash gaplar kiradi.

3) bosh gapdagi atributiv – xol bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruxga sabab – natija, shart, to‘siqsiz, maqsad, payt, o‘xshatish va chog‘ishtirish ergash gaplar kiradi.

A.G‘ulomov va M.Asqarovalar o‘zbek tilidagi gaplarni klassifikatsiya qilishda ularning grammatik va logik tomonlariga etib bergan xolda, ko‘pchilik tillarda davom etib kelgan ananaviy prinsipga asoslanib quyidagi turlarga ajratishadi:

1) ega ergash gap; 2) kesim ergash gap; 3) to‘ldiruvchi ergash gap; 4) aniqlovchi ergash gap; 5) ravish ergash gap; 6) daraja va miqdor ergash gap; 7) o‘xshatish ergash gap; 8) sabab ergash gap; 9) maqsad ergash gap; 10) payt ergash gap; 11) o‘rin ergash gap; 12) shart ergash gap; 13) to‘siqsiz ergash gap; 14) natija ergash gap.

Ergashgan qo‘shma gaplar xam fikriy, grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo‘ladi. Ergashgan qo‘shma gap komponentlari uch kriteriy asosda birikadi:

- 1) Fikrdagi nisbiy logik mustaqillik;
- 2) Xar bir komponent uchun aloxida ega, kesimning bo‘lishi;
- 3) Intonatsiya.

Ergash gaplar tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning mavjud bo‘lishi, yoyiq, yig‘iq bo‘lishi va boshqa xususiyatlari bilan qo‘shma gap tarkibiga kirmagan sodda g‘aplardan kam farqlanadi.

Ergash gaplar bosh gapga turli vositalar yordami bilan bog‘lanadi. Ko‘makchilar, yuklamalar, nisbiy so‘zlar, ma‘lum kelishik qo‘shimchalari ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ergash gapni bosh gapga bog‘lashda sifatdosh, ravishdosh va shart fe‘li formalarining roli kattadir. Shuningdek, intonatsiya va qo‘shma gap sostavidagi gaplarning o‘rinlashishi ham ergash va bosh gaplarni chegaralashda, belgilashda, ularni bir-biriga bog‘lashda ahamiyati kattadir. Ayniqsa, intonatsiyaning roli juda muhimdir: ergash va bosh gaplar qanday yo‘l bilan bog‘lanmasin, har vaqt intonatsiya ularning birikishidagi vositalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov G. “Qo‘shmagapsintaksisiasoslari”. Toshkent: O‘zFA, 1958
2. Asqarova M. “Hozirgizamono‘zbektilida qo‘shmagaplar”. Toshkent 1960
3. A.G‘ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Sintaksis) T., “O‘qituvchi”, 1965. b.15
4. G‘apporov M., Qosimova R. Ingliztiligrammatikasi. -T.: “Turon-iqbol”, 2011.
5. В.Л.Каушчанская, Р.Л.Ковнер, О.Н.Кожевникова, Е.В.Прокофьева, З.М. Райнес, С.Е.Сквирская, Ф.Я.Цырлина “Грамматика английского языка” просвещение, 1873
6. E.Hemingway, “A Farewell to Arms”. New York-1957
7. E.M.Heminguey “Alvido, qurol”, Toshkent – 2019